

The Use Of Medical Terminology In The Communication Process: An Analysis Based On The Theory Of Formal And Functional Equivalence

Alimatova Sevarakhon Khasanjan qizi

Doctoral student of Kokand University

Abstract

This article analyzes the use of medical terminology in doctor–patient communication based on the theory of formal and functional equivalence. The study examines selected clinical terms commonly used in everyday medical practice through a comparative linguistic approach, focusing on their formal forms and functionally understandable expressions for patients. The results indicate that while formal terminology ensures precision in professional discourse, functional equivalence plays a crucial role in patient communication. The theory of equivalence, particularly the approaches proposed by Eugene Nida, provides an effective theoretical framework for interpreting medical communication. The findings highlight the importance of presenting medical information in a clear and accessible form to improve communication efficiency in healthcare settings.

Key words: medical terminology, equivalence, formal equivalence, functional equivalence, medical communication, doctor–patient interaction.

Annotatsiya

Mazkur maqolada tibbiy terminlarning shifokor–bemor muloqoti jarayonida qo‘llanishi formal va funksional ekvivalentlik nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kundalik tibbiy amaliyotda uchraydigan ayrim klinik terminlar tanlab olinib, ularning formal shakllari hamda bemor uchun tushunarli funksional ifodalari qiyosiy-lingvistik yondashuv asosida o‘rganildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, terminlarning formal shakli professional nutqda aniqlikni ta‘minlasa-da, bemor bilan muloqotda funksional ekvivalentlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ekvivalentlik nazariyasi, xususan, Eugene Nida tomonidan ilgari surilgan formal va funksional yondashuvlar tibbiy kommunikatsiyani izohlashda samarali nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari tibbiy terminlarni bemorga tushunarli shaklda yetkazish sog‘liqni saqlash amaliyotida samarali kommunikatsiyani ta‘minlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: tibbiy terminologiya, ekvivalentlik, formal ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik, tibbiy kommunikatsiya, shifokor–bemor muloqoti.

Kirish

Tibbiyot insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib, hayotimizning har bir daqiqasi u bilan bog‘liqdir. Tibbiy terminlar esa anashu uzviy bog‘liqlikning muhim vositalari hisoblanadi. Tibbiy terminlar haqidagi bilimlar sog‘liqni saqlash tizimida soha mutaxassislarining bir birlarini o‘zaro tushunishlariga va bemorlar holatini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Davolashning barcha jarayonlari xususan, tekshirish, tashxis qo‘yish va muolajalarda tibbiy terminlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi muhim hisoblanadi. Chunki tibbiy terminlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi bemorlar uchun

chalkashliklarga olib kelishi va ularning salomatligi uchun jiddiy xavf solishi mumkin. Shu munosabat bilan tibbiy terminlarning shifokor-bemor muloqotida to‘g‘ri namoyon bo‘lishini ta‘minlash hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu muammolarning mavjudligi tilshunoslikda nazariy hamda amaliy tadqiqotlar qilish zaruratini oshiradi. Shu xususda ekvivalentlik nazariyasini chuqur tadqiq qilish o‘rinlidir. Bu borada turli olimlar tomonidan terminlarning shakllanishi, ularning lingvistik xususiyatlari hamda

kommunikativ vazifalari yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, AQSHlik tilshunos va tarjimashunos Eugene Nida[1] ekvivalentlik nazariyasini ishlab chiqib, o'zining "Toward a Science of Translating: with Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating"(1964) kitobida formal va funksional ekvivalentlik tushunchalarini ilmiy asoslab bergan hamda tarjima jarayonida qabul qiluvchining tushinishi muhim mezon ekanligini ta'kidlagan. Arab tadqiqotchisi Othman Al-Darraj[2] ham o'zining "Equivalence in Translation: An Investigation of the Usefulness of Formal and Dynamic Types of Equivalence in the Translation of Some English Idiomatic Expressions into Arabic"(2015) nomli maqolasida tarjima jarayonida funksional ekvivalentlikning ahamiyatini Arab tili misolida izohlab bergan. Tadqiqotchilar Yagin F. H hamda Fernandes M. S[3] esa "The Importance of Medical Terminology in the Health Sector"(2024)maqolasida tibbiy terminlar shifokorlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlashi, bemor holatini aniq ifodalashga xizmat qilishi va noto'g'ri tushinishlar xavf tug'dirishi mumkinligini tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada tadqiqot uchun formal va funksional ekvivalentlik nazariyasining amalda qo'llanilishini tahlil qilish maqsadida to'rtta klinik termin tanlab olindi. Tanlangan terminlar "Tibbiy atamalar izohli lug'ati" (A. Usmonxodjayev, O'. Abilov, M. Turaxonova, K. Turdiyeva, 2021)[4] manbasidan olindi. Ushbu terminlar kundalik tibbiy amaliyotda qo'llaniladigan, shifokor-bemor muloqotida tez-tez uchrab turadigan va tushunilishi murakkab bo'lgan terminlar sifatida tanlandi. Tanlangan terminlar kommunikatsiya jarayonida ekvivalentlik nazariyasining namoyon bo'lishini aniqlash va ularning formal hamda funksional ifodalarni taqqoslash asosida o'rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida tibbiy

terminlar olindi. Tadqiqot predmeti esa ularning shifokor–bemor muloqoti jarayonida qo'llanishi hamda bemor tomonidan tushunilish darajasi bilan bog'liq lingvistik va kommunikativ xususiyatlardan iborat. Tadqiqot qiyosiy-lingvistik metod doirasida amalga oshirildi. Ya'ni tanlangan terminlar bosqichma-bosqich tahlil qilindi: avvalo ularning formal shakllari aniqlandi, so'ng funksional ifodalari ajratib olindi va keyingi bosqichda ushbu shakllar o'zaro qiyosiy tahlil asosida taqqoslandi.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tanlab olingan klinik terminlar formal va funksional jihatdan tahlil qilindi hamda shifokor-bemor kommunikatsiyasida qanday tushunilishiga e'tibor qaratildi. Natijalar quyida alohida terminlar misolida bayon etiladi.

Aritmiya termini tibbiy amaliyotda qo'llaniladi. Ozbek tiliga lotin tilidan kirib kelgan soz bolganligi sababli tushinilishi murakkab bolishi mumkin. Uning formal shakli *aritmia*, funksional ifodasi esa *yurak urishining buzilishi* tarzida namoyon bo'ladi. Ushbu termin shifokorlar o'rtasida formal shaklda qo'llansa, bemor bilan muloqotda funksional ifoda orqali tushuniladi.

Gipertenziya termini tibbiyotda qon bosimining me'yoriy darajadan oshishi holatini ifodalash uchun qo'llaniladi. Uning formal shakli *gipertenziya* tarzida ishlatiladi, funksional ifodasi esa *yuqori qon bosimi* ko'rinishida tushuntiriladi. Ushbu termin mutaxassislar o'rtasida ilmiy nomi bilan qo'llanilsa, bemor bilan muloqotda uning sodda va tushunarli ifodasi ishlatiladi.

Lotin tilidan kirib kelgan *mezenterit* termini klinik amaliyotda *ichak tutqichining yallig'lanishi bilan bog'liq holatni* ifodalash uchun qo'llaniladi. U formal shaklda *mezenterit* tarzida ishlatiladi, funksional ifodasi esa *ichak tutqichining yallig'lanishi* ko'rinishida bayon etiladi.

Shifokor–bemor muloqotida ayrim tibbiy terminlarning mazmuni darhol

anglashilmasligi mumkin. Shunday terminlardan biri *gipotireoz* hisoblanadi. Mazkur termin formal shaklda *gipotireoz* tarzida qo'llanadi, funksional ifodasi esa *qalqonsimon bez faoliyatining pasayishi* ko'rinishida tushuntiriladi. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda o'z ifodasini topadi.

Jadval 1. Tibbiy terminlarning formal va funksional ifodasi

	Termin	Formal ifoda	Funksional ifoda
1	<i>Aritmiya</i>	<i>Aritmiya</i>	<i>yurak urishining buzilishi</i>
2	<i>Gipertenziya</i>	<i>gipertenziya</i>	<i>yuqori qon bosimi</i>
3	<i>Mezenterit</i>	<i>mezenterit</i>	<i>ichak tutqichining yallig'lanishi</i>
4	<i>Gipotireoz</i>	<i>gipotireoz</i>	<i>qalqonsimon bez faoliyatining pasayishi</i>

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tanlab olingan barcha terminlarda formal ekvivalentlik mavjud, professional nutqda ishlatiladi biroq bemor tushinishi uchun funksional ekvivalentlik muhim rol o'ynaydi. Terminlar lotin tilidan kelib chiqqan va ko'pchiligi qo'shimchlar qo'shish yordamida yasalgan. Misol uchun, gipertenziya (giper-normadan yuqori) yuqori qon bosimi, gipotireoz termini esa (gipo-normadan past) qalqonsimon bez faoliyatining pasayishi kabi hosil bo'lgan. Garchi bu terminlar shifokorlar orasida universal til sifatida qo'llansada, bemorlar orasida tushunmovchiliklarga va tibbiy holatlarni noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Quyida ushbu holat ekvivalentlik nazariyasi bilan izohlanadi. Eugena Nida fikriga ko'ra,

Formal ekvivalentlik tarjima jarayonida so'zning asl shakli va mazmuniga imkon qadar yaqin qolishni maqsad qiladi hamda tarjimonning shaxsiy fikr yoki talqinlarini qo'shmaslikka intiladi. Bunday yondashuvda tarjima ko'proq so'zma-so'z amalga oshiriladi va asl xabarning shaklan buzilish xavfi kamayadi. Biroq bu usul o'quvchidan mavzu haqida ma'lum darajada tayyorgarlik va tushunchaga ega bo'lishni talab qiladi.

Funksional ekvivalentlik esa so'zma-so'z tarjima emas aksincha tushunchaga asoslangan tarjima muhim hisoblanadi. Ya'ni tarjima qilinayotgan so'z uni qabul qiluvchilarga qanday tushinilishi inobatga olinib tarjima qilinadi, so'zning faqat shakily tuzilishiga sodiqlikdan yiroqlashgan holda. Nidaning tarjimadagi ushbu nazariyasi terminlardagi ekvivalentlikga mos tushadi. Ya'ni tanlab olingan 4 ta termin lotin tilidan shaklan moslashuv asosida o'zbek terminologiyasiga kirib kelgan va kundalik tibbiy amaliyotlarda ishlatiladi. Terminlarning formal shaklda qo'llanilishi professional nutqda aniqlik va ixchamlikni ta'minlasa-da, bemor bilan muloqotda ularning funksional ifodasi tushunishni osonlashtiradi. Bu esa bemorning o'z sog'lig'i haqidagi ma'lumotni to'g'ri anglashiga, davolanish jarayonida faol ishtirok etishiga hamda shifokor tavsiyalarini to'liq tushunishiga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, tibbiy terminlarni bemorga tushunarli shaklda yetkazish sog'liqni saqlash tizimida samarali kommunikatsiyani ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Functional ekvivalentlikdan foydalanish orqali tibbiy axborotning aniq va ravshan ifodalanishi bemor xavfsizligini oshirish, noto'g'ri talqinlarning oldini olish hamda davolash samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotdan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda tibbiyotda

kundalik amaliyotda qo'llanilayotgan ayrim terminlar bemor uchun sodda va tushunarli shaklda izohlashni talab qiladi. Tibbiy terminlarning noto'g'ri talqin qilinishi bemorlarning o'z holatini anglashida qiyinchiliklar tug'dirishi hamda davolash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois tibbiy terminologiyani lingvistik jihatdan chuqur o'rganish, ularning funksional ekvivalentlarini aniqlash va kommunikativ nuqtai nazardan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekvivalentlik nazariyasi, xususan, Nida tomonidan ilgari surilgan formal va funksional yondashuvlar tibbiy terminlarning qo'llanishini izohlashda samarali nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv tibbiy axborotni bemorga tushunarli shaklda yetkazish, shifokor–bemor o'rtasidagi samarali kommunikatsiyani ta'minlash hamda sog'liqni saqlash amaliyotida tushunmovchiliklarning oldini olishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Reuter P., Weiss V. Introduction to Medical Terminology: A Course Companion. — MedCerts, 2020.

Foydalanilgan adabiyotlar

Nida E. A. Toward a Science of Translating: with Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. — Leiden: E.J. Brill, 1964. — 331 p.

Al-Darraj O. A. O. Equivalence in Translation: An Investigation of the Usefulness of Formal and Dynamic Types of Equivalence in the Translation of Some English Idiomatic Expressions into Arabic. — Global Libyan Journal, 2015.

Yagin F. H., Fernandes M. S. de S. The Importance of Medical Terminology in the Health Sector. — Journal of Exercise Science & Physical Activity Reviews, 2024.

Usmonxodjayev A., Abilov O', Turaxonova M., Turdiyeva K. Tibbiy atamalar izohli lug'ati. — Toshkent, 2021. — 351 b.